Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

NUTQ BUZILISHIGA EGA BOLALARDA MULOQOT MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING LOGOPEDIK USULLARI

Xamidova Muattarxon Akmaljon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti
Logopediya yo'nalishi 3-kurs talabasi
xamidovamuattar6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasini shakllantirishning logopedik usullari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi nutqiy rivojlanishida buzilishlar kuzatiladigan bolalarda muloqotga ehtiyoj va qiziqishni oshirish, kommunikativ faollikni rag'batlantirish hamda samarali logopedik ta'sir usullarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat, taqqoslash, umumlashtirish hamda logopedik mashg'ulotlar jarayonini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari muloqot motivatsiyasini shakllantirishda kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, o'yin texnologiyalari, dialogik mashqlar, vizual tayanchlar, rag'batlantirish, savol-javob va hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan tizimli foydalanish bolalarning muloqotga kirishish faolligini oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, logopedik ta'sir jarayonida bolaning individual nutqiy imkoniyatlari, yosh xususiyatlari va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish muhimligi aniqlandi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasining shakllanish mexanizmlarini logopedik yondashuvlar bilan bog'liq holda tizimlashtirish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan yondashuvlardan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, logopediya xonalari va korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: nutq buzilishi, muloqot motivatsiyasi, kommunikativ faollik, logopedik usullar, logopedik mashg'ulot, kommunikativ ehtiyoj, nutqiy rivojlanish, korreksion ta'lim.

Abstract: This article examines the scientific and practical aspects of speech therapy methods for developing communication motivation in children with speech disorders. The aim of the study is to increase children's need and interest in communication, promote their communicative activity, and identify effective speech therapy methods for children with speech development disorders. The study employed the methods of scientific literature analysis, pedagogical observation, interviews, comparison, generalization, and analysis of speech therapy sessions. The findings indicate that systematic use of modeled communicative situations, play-based techniques, dialogic exercises, visual supports, positive reinforcement, question-and-answer activities, and collaborative tasks contributes to increased communicative engagement among children. The study also established the importance of considering each child's individual speech abilities, age-related characteristics, and communicative needs throughout the speech therapy process. The scientific significance of the study lies in systematizing the mechanisms underlying the development of communication motivation in children with speech disorders in relation to speech therapy approaches. The practical significance of the study is determined by the possibility of applying the proposed approaches in preschool educational institutions, speech therapy settings, and corrective-developmental sessions.

Keywords: speech disorders, communication motivation, communicative activity, speech therapy methods, speech therapy sessions, communicative needs, speech development, corrective education.

INTRODUCTION (KIRISH)

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning to‘laqonli rivojlanishida muloqot muhim psixologik-pedagogik jarayonlardan biri hisoblanadi. Muloqot orqali bola o‘z ehtiyojlari, istaklari va fikrlarini ifodalaydi, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi hamda ta’limiy faoliyatda faol ishtirok etadi. Shu sababli nutq buzilishiga ega bolalarda nafaqat tovush talaffuzi, lug‘at boyligi, grammatik qurilish yoki bog‘lanishli nutqni rivojlantirish, balki bolaning muloqotga kirishish ehtiyoji va kommunikativ faolligini shakllantirish ham logopedik korreksiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Zamonaviy logopediya yondashuvlarida nutqiy buzilishning ta’siri faqat bolaning nutqiy ko‘nikmalari bilan chegaralanmay, uning ijtimoiy munosabatlari va kundalik faoliyatdagi ishtiroki bilan ham bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. ASHA ma’lumotlariga ko‘ra, nutq va til buzilishlari bolalarning tengdoshlari bilan muloqot qilishi, suhbatda navbat almashishi, fikrini ifodalashi, muloqotdagi uzilishlarni bartaraf etishi va ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishiga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Mazkur muammo, ayniqsa, nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq holatlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bola nutqiy jihatdan ma’lum imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, muloqotni mustaqil boshlamasligi, savollarga javob berishdan qochishi, tengdoshlari bilan suhbatga kam kirishishi yoki o‘z fikrini ifodalash uchun verbal bo‘lmagan vositalarga ko‘proq tayanishi mumkin. Bunday holatlarda faqat nutq birliklarini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar bolaning real kommunikativ faoliyatini to‘liq ta’minlamasligi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ham kommunikativ qiyinchiliklarni baholashda bolaning ijtimoiy ishtiroki va real muloqotdagi faoliyatini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Krueger nutq tovushlari buzilishining ijtimoiy ta’sirini baholash bolaning ta’lim jarayoni va ijtimoiy muloqotdagi ehtiyojlarini to‘liqroq aniqlashga yordam berishini ko‘rsatadi. Muloqotning funksional jihatdan baholanishi Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Xalqaro faoliyat, hayot faoliyati va salomatlik tasnifi (ICF) konsepsiyasida ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvda kommunikatsiya faqat xabarni qabul qilish yoki nutq hosil qilish jarayoni sifatida emas, balki suhbat olib borish, verbal va noverbal vositalardan foydalanish hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda muloqot qilish imkoniyati sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, logopedik yordamning samaradorligini baholashda bolaning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi yoki grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishi bilan bir qatorda, uning muloqotga kirishish istagi, kommunikativ tashabbusi, suhbatni davom ettirishi va tengdoshlari bilan o‘zaro hamkorlik qila olishi kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy muloqotning interaktiv xarakteri, pragmatik ko‘nikmalar, ijtimoiy bilish va tilni qayta ishlash jarayonlari o‘zaro bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Adams ijtimoiy kommunikatsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bitta nutqiy komponent bilan cheklab bo‘lmasligini, unda ijtimoiy o‘zaro ta’sir, pragmatika va til jarayonlarining o‘zaro aloqasi muhimligini asoslagan. Shuningdek, maktab yoshidagi til buzilishlariga ega bolalarda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan aralashuvlar bo‘yicha tizimli sharhlar ayrim kommunikativ ko‘nikmalarda, jumladan, mavzuni boshqarish, hikoya tuzish va noaniq yoki yetarli bo‘lmagan fikrlarni tuzatish kabi jihatlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishini ko‘rsatgan. Biroq ushbu yo‘nalishda yanada chuqurroq empirik tadqiqotlar zarurligi ham qayd etilgan. Shundan kelib chiqib, nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasini shakllantirish logopedik korreksiyaning mustaqil va muhim yo‘nalishlaridan

biri sifatida qaralishi lozim. Bunda bolaning kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish, tabiiy muloqot vaziyatlarini yaratish, o‘yin faoliyatidan foydalanish, dialogik topshiriqlarni tashkil etish, vizual tayanchlar va ijobiy rag‘batlantirish vositalarini qo‘llash, shuningdek, bolaning verbal va noverbal kommunikativ imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash muhim metodik shartlar hisoblanadi. ASHA tavsiyalarida ham kommunikativ faoliyat va ijtimoiy ishtirokni qo‘llab-quvvatlashda bolaning mavjud imkoniyatlariga tayangan holda yangi kommunikativ ko‘nikma va strategiyalarni shakllantirish hamda muloqotga to‘sqinlik qiluvchi muhit omillarini kamaytirish zarurligi ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali logopedik usullarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, kommunikativ faollikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, muloqot motivatsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan logopedik usullarni tizimlashtirish hamda ularning korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardagi amaliy ahamiyatini yoritish belgilandi. Mazkur yondashuv nutq buzilishini faqat nutqiy birliklarning shakllanish darajasi orqali emas, balki bolaning real muloqotdagi faolligi va ijtimoiy ishtiroki bilan birgalikda baholash imkonini beradi.

METHODS (METODLAR VA MATERIALLAR)

Tadqiqotning obyekti nutq buzilishiga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ faoliyatning shakllanish jarayoni, predmeti esa ushbu bolalarda muloqot motivatsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan logopedik usul va yondashuvlar tizimidan iborat. Tadqiqotda nutq buzilishi bolaning faqat talaffuz yoki til birliklarini egallashidagi qiyinchilik sifatida emas, balki uning ijtimoiy muloqotdagi ishtiroki, kommunikativ tashabbusi va pragmatik ko‘nikmalariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holat sifatida ko‘rib chiqildi. Xorijiy tadqiqotlarda ham til buzilishiga ega bolalarda pragmatik nutq, suhbatni boshlash va davom ettirish, mavzuni boshqarish hamda kommunikativ vaziyatga mos javob berish kabi ko‘nikmalar alohida o‘rganilgan. Tadqiqotning yosh chegarasi, avvalo, maktabgacha yosh davri bilan bog‘landi. Bunday tanlov bolaning kommunikativ ehtiyojlari, nutqiy tashabbusi va ijtimoiy o‘zaro ta’siri aynan ushbu davrda jadal shakllanishi bilan izohlanadi. O‘zbekistonning amaldagi maktabgacha ta’lim tizimida ham bolaning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlardan biridir. Tadqiqotda yosh xususiyatlari bilan bir qatorda nutq buzilishining turi va bolaning kommunikativ imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili asos qilib olindi. O‘zbekistonning maxsus ta’lim tizimiga oid zamonaviy materiallarida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning klinik, psixologik va pedagogik xususiyatlarini aniqlash, nutq buzilishlarining sabablari va tasnifini bilish hamda logopedik yordam metodlaridan foydalanish zarurligi belgilangan. Bu esa logopedik ishni barcha bolalarga bir xil tarzda emas, balki bolaning individual nutqiy va kommunikativ imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Muloqot motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda bolaning nutqiy imkoniyatlari, lug‘at boyligi, grammatik va fonologik rivojlanishi, nutqning tushunarliligi, kommunikativ tashabbusi, suhbatni boshlash va davom ettirish qobiliyati, tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabati,

shuningdek, oilaviy va ta’limiy kommunikativ muhit hisobga olindi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda pragmatik ko‘nikmalar verbal, paralingvistik va noverbal komponentlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanishi qayd etiladi. Bunda suhbatni boshlash, mavzuni tanlash va saqlash, navbat almashish, javob qaytarish, nutqdagi uzilishlarni tuzatish, ovoz sifati va ohang, imo-ishora, yuz ifodasi hamda ko‘z qarashi kabi omillar kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, umumlashtirish va logopedik amaliyotda qo‘llanadigan kommunikativ topshiriqlarni tahlil qilish metodlariga tayandi. Xorijiy tajribani o‘rganishda tizimli sharhlar alohida metodologik manba sifatida qabul qilindi. Jumladan, Jensen de López, Kraljević va Struntze tomonidan o‘tkazilgan tizimli sharhda 2006–2020-yillarda chop etilgan tadqiqotlar orasidan rivojlanish til buzilishiga ega bolalarda pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan 11 ta tadqiqot tahlil qilingan. Tadqiqotlarda individual, kichik guruh va katta guruh shaklidagi aralashuvlardan foydalanish mumkinligi, shuningdek, suhbat va hikoya tuzish ko‘nikmalarini rag‘batlantirish keng qo‘llanilganligi aniqlangan. Amaliy jarayonni tashkil etishda logopedik ta’sirning kommunikativ yo‘nalishi asos qilib olindi.

Mashg‘ulotlarning mazmunini bolaning muloqotga kirishishini rag‘batlantiruvchi tabiiy va strukturaviy vaziyatlar, dialogik topshiriqlar, rolli va didaktik o‘yinlar, savol-javob, umumiy faoliyatga asoslangan topshiriqlar, rasm yoki predmetlar asosida suhbat tashkil etish, hikoya tuzish va kommunikativ vaziyatni davom ettirish kabi faoliyatlar tashkil etishi mumkin. Xorijiy tizimli sharh natijalarida ham pragmatik aralashuvlarning asosiy yo‘nalishlari suhbat va hikoya ko‘nikmalarini rag‘batlantirish, ota-ona–bola o‘zaro ta’siri hamda birgalikda kitob o‘qish kabi kommunikativ faoliyatlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Logopedik ishning muhim metodik sharti sifatida bevosita va bilvosita aralashuvning uyg‘unligi belgilandi. Bevosita yondashuvda logoped bola bilan kommunikativ ko‘nikmalarni maqsadli shakllantiradi; bilvosita yondashuvda esa ota-ona yoki boshqa mutaxassislar bolaning kundalik muloqotini qo‘llab-quvvatlashga jalb etiladi. Jensen de López va hammualliflarning tizimli sharhi pragmatik ko‘nikmalarni individual, kichik guruh va katta guruh shakllarida rivojlantirish mumkinligini, mutaxassis nazorati ostida bilvosita aralashuv ham qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekistondagi amaliy yondashuvlar ham tadqiqot metodologiyasining muhim qismi sifatida hisobga olindi. O‘zbekiston Respublikasi davlat tizimining logopediya bo‘yicha metodik materiallarida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning xususiyatlarini aniqlash, logopedik yordam metodlarini qo‘llash va korreksion texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, maktablarda tashkil etiladigan logopediya shoxobchalarining vazifalari qatorida nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish, og‘zaki nutqdagi kamchiliklarni korreksiyalash hamda nutqiy rivojlanishida qiyinchiliklari bo‘lgan bolalarga logopedik yordam ko‘rsatish belgilangan. Tadqiqotning normativ-huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni mazmuni hisobga olindi. Mazkur huquqiy asoslar ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash nuqtayi nazaridan tadqiqot mavzusining ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini belgilaydi. O‘RQ-637-son Qonun 2020-yil 23-sentabrda, O‘RQ-595-son Qonun 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan; O‘RQ-641-son Qonun esa 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan. O‘zbekiston va xorijiy tajribani qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, mahalliy logopediya amaliyotida

nutq buzilishlarini aniqlash, korreksiyalash va maxsus metodlardan foydalanishga e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, xalqaro tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya, pragmatik nutq va bolaning real ijtimoiy muloqotdagi ishtirokini baholashga ham katta ahamiyat berilmoqda. Masalan, Gerber va hammualliflarning tizimli sharhida til buzilishiga ega maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy muloqotga yo'naltirilgan turli davolash va ta'limiy yondashuvlarning amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan hamda ayrim tadqiqotlarda mavzuni boshqarish, hikoya tuzish va noaniq yoki yetarli bo'lmagan fikrlarni tuzatish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Shu bilan birga, mualliflar mavjud dalillarni yanada kuchaytirish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarurligini ta'kidlagan. Shunday qilib, mazkur tadqiqotda metodik yondashuvning asosiy mezoni bolaning nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda uning muloqotga ehtiyoji, kommunikativ tashabbusi, suhbatga kirishishi, suhbatni davom ettirishi va ijtimoiy o'zaro ta'sirdagi faolligini qo'llab-quvvatlashdan iborat qilib belgilandi. Tadqiqot metodlari va amaliy jarayonlari ushbu ko'rsatkichlarni tizimli ravishda kuzatish, mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslash va logopedik ta'sirning kommunikativ yo'nalishini asoslashga qaratildi.

RESULTS (NATIJALAR)

Tadqiqotda nutq buzilishiga ega 22 nafar maktabgacha yoshdagi bola ishtirok etdi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida bolalarning muloqot motivatsiyasi, kommunikativ tashabbusi, muloqotga mustaqil kirishishi, suhbat jarayonida ishtirok etishi, savollarga javob berishi hamda o'z ehtiyoj va istaklarini muloqot vositasida ifodalash imkoniyatlari baholandi. Baholash natijalari past, o'rta va yuqori darajalar asosida tahlil qilindi. Dastlabki diagnostik kuzatuv natijalariga ko'ra, 22 nafar bolaning 1 nafari (4,5%) muloqot motivatsiyasining past darajasini, 21 nafari (95,5%) esa o'rta darajasini ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda yuqori darajadagi natija qayd etilmadi. Past darajadagi ko'rsatkichga ega bo'lgan bolada muloqotga kirishish tashabbusi sustligi, kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirokning yetarli emasligi va suhbat jarayonida qo'shimcha yordamga ehtiyoj mavjudligi kuzatildi. O'rta darajadagi bolalarda esa muloqotga ehtiyoj mavjud bo'lib, biroq kommunikativ faollikning ayrim vaziyatlarda beqarorligi va muloqotni mustaqil davom ettirishda qiyinchiliklar kuzatildi. Shundan so'ng bolalar bilan muloqot motivatsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan logopedik ishlar olib borildi. Korreksion-rivojlantiruvchi jarayonda kommunikativ o'yinlar, predmet va rasmlar asosida suhbat, savol-javob mashqlari, dialogik topshiriqlar, rolli o'yinlar, hikoya tuzish, navbat bilan muloqot qilish va bolaning kommunikativ tashabbusini rag'batlantirishga qaratilgan mashqlardan foydalanildi. Mashg'ulotlar davomida bolalarning individual nutqiy imkoniyatlari va muloqotga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olindi. Korreksion-logopedik ishlar yakunida o'tkazilgan qayta baholash natijalari dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan ijobiy o'zgarish mavjudligini ko'rsatdi. Yakuniy baholashda 22 nafar bolaning 10 nafari (45,5%) muloqot motivatsiyasining o'rta darajasida, 11 nafari (50,0%) yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Past darajadagi ko'rsatkichga ega bo'lgan bolalar qayd etilmadi.

1-jadval. Bolalarda muloqot motivatsiyasi darajasining tadqiqotdan oldingi va keyingi ko'rsatkichlari

Muloqot motivatsiyasi darajasi	Tadqiqot boshida, nafar	Tadqiqot boshida, %	Tadqiqot yakunida, nafar	Tadqiqot yakunida, %

Past daraja	1	4,5	0	0
O‘rta daraja	21	95,5	10	45,5
Yuqori daraja	0	0	11	50,0
Jami	22	100	22	100

Jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot boshida past darajada bo‘lgan 1 nafar bolaning muloqot motivatsiyasi tadqiqot yakunida yuqori darajaga ko‘tarilgan. Dastlab o‘rta darajada bo‘lgan 21 nafar bolaning 10 nafari yakuniy baholashda o‘rta darajada qolgan bo‘lsa, 11 nafari yuqori darajaga ko‘tarilgan. Natijalar umumlashtirilganda, tadqiqot boshida yuqori darajadagi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bolalar mavjud bo‘lmagan bo‘lsa, yakuniy baholashda 11 nafar (50,0%) bola yuqori darajaga erishgani aniqlandi. Shuningdek, past darajadagi bolalar ulushi 4,5 foizdan 0 foizgacha kamaydi. O‘rta darajadagi bolalar ulushi esa 95,5 foizdan 45,5 foizgacha qisqardi. Mazkur o‘zgarishlar bolalarning kommunikativ faolligi va muloqot motivatsiyasida ijobiy dinamika yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bolalarning muloqotga mustaqil kirishishi, savol-javob jarayonida faol ishtirok etishi, suhbatni davom ettirishga intilishi va o‘z ehtiyojlarini kommunikativ vositalar orqali ifodalashida ijobiy siljishlar kuzatildi. O‘rta darajada qolgan 10 nafar bolada ham muloqotga qiziqish va kommunikativ faollik saqlangan bo‘lib, ushbu bolalarda muloqot motivatsiyasini yuqori darajaga olib chiqish uchun korreksion-logopedik ishlarni davom ettirish zarur. Shunday qilib, tadqiqotning dastlabki va yakuniy natijalarini qiyoslash nutq buzilishiga ega bolalarda muloqot motivatsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli logopedik mashg‘ulotlardan so‘ng ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganligini ko‘rsatdi. Natijalar keyingi bosqichda olingan ko‘rsatkichlarni ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilish va ularning pedagogik-logopedik ahamiyatini muhokama qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

DISCUSSION (MUNOZARA)

Mazkur tadqiqot natijalari nutq buzilishiga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot motivatsiyasini shakllantirish jarayonida tizimli logopedik yondashuvning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqotda 22 nafar bolaning dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlari qiyoslanganda, boshlang‘ich bosqichda 1 nafar bola (4,5%) muloqot motivatsiyasining past, 21 nafar bola (95,5%) o‘rta darajasida bo‘lgan. Yakuniy baholashda esa 10 nafar bola (45,5%) o‘rta, 11 nafar bola (50,0%) yuqori darajani namoyon qilgan hamda dastlab past darajada bo‘lgan 1 nafar bolaning ko‘rsatkichi ham ijobiy tomonga o‘zgargan. Mazkur o‘zgarishlar bolalarning muloqotga bo‘lgan qiziqishi, kommunikativ tashabbusi va muloqot jarayonidagi faol ishtirokini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda kuzatilgan ijobiy dinamikaning muhim jihati shundaki, logopedik ish faqat nutqning fonetik yoki grammatik tomonlarini shakllantirish bilan chegaralanmagan, balki bolaning real kommunikativ faoliyatini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan. Muloqot motivatsiyasi bolaning faqat gapira olish imkoniyati bilan belgilanmaydi; bolaning muloqotni boshlashi, suhbatdoshga javob berishi, o‘z fikri

yoki ehtiyojini bildirishga intilishi va kommunikativ vaziyatda o‘zaro hamkorlikni davom ettirishi ham muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Adams ijtimoiy kommunikatsiyani ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ijtimoiy bilish, pragmatika va tilni qayta ishlash jarayonlarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda kommunikativ o‘yinlar, dialogik topshiriqlar, savol-javob, rolli vaziyatlar va suhbatga asoslangan mashqlarni qo‘llashning maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan izohlanadi. Olingan natijalar xorijiy tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan hamohangdir. Gerber va hammualliflarning ijtimoiy kommunikatsiya bo‘yicha sistematik sharhida til buzilishiga ega bolalarda ijtimoiy muloqotga yo‘naltirilgan turli intervensiyalar o‘rganilgan va ayrim tadqiqotlarda mavzuni boshqarish, hikoya tuzish hamda yetarli bo‘lmagan yoki noaniq fikrlarni tuzatish kabi kommunikativ ko‘nikmalarda ijobiy o‘zgarishlar qayd etilgan. Mazkur ilmiy dalillar bizning tadqiqotimizda kuzatilgan muloqot motivatsiyasi va kommunikativ faollikdagi ijobiy dinamika bilan mazmunan mos keladi. Biroq mualliflar mavjud dalillarni standart klinik amaliyot uchun qat’iy xulosa sifatida qabul qilishdan oldin qo‘shimcha tadqiqotlar zarurligini ham ta’kidlagan. Jensen de López, Kraljević va Struntze tomonidan olib borilgan 2022-yilgi sistematik sharh natijalari ham mazkur tadqiqot uchun muhim ilmiy taqqoslash imkonini beradi. Mualliflar rivojlanish til buzilishiga ega 3–18 yoshdagi bolalarda pragmatik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan intervensiyalarni tahlil qilib, suhbat va hikoya ko‘nikmalariga yo‘naltirilgan yondashuvlarda ijobiy ta’sirlar mavjudligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, tadqiqotlar o‘rtasida intervensiya mazmuni, davomiyligi va qo‘llash shakllarida sezilarli farqlar mavjudligi sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarurligi qayd etilgan. Bizning tadqiqotimizda ham kommunikativ o‘yinlar, dialogik topshiriqlar, savol-javob va hikoya tuzishga asoslangan faoliyatlardan foydalanilgani ushbu xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashadi. Tadqiqot natijalarida o‘rta darajadagi bolalar ulushining kamayib, yuqori darajadagi bolalar ulushining paydo bo‘lishi alohida e’tiborga loyiqdir. Dastlab yuqori darajadagi natija qayd etilmagan bo‘lsa, yakuniy baholashda 11 nafar bola (50,0%) yuqori darajaga yetgan. Bu holat muloqot motivatsiyasini rivojlantirish jarayonida bolaning mavjud nutqiy imkoniyatlarini real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga imkon beradigan mashqlar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bunda logopedning bolaning o‘rniga javob berishi emas, balki uni mustaqil kommunikativ harakatga undashi, savol berish va javob qaytarish uchun tabiiy vaziyat yaratishi hamda bolaning tashabbusini ijobiy rag‘batlantirishi muhim metodik shart sifatida namoyon bo‘ladi.

CONCLUSION (XULOSA)

Mazkur tadqiqot natijalari nutq buzilishiga ega maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot motivatsiyasini shakllantirish logopedik korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida bolaning faqat nutqiy imkoniyatlarini emas, balki uning muloqotga kirishish istagi, kommunikativ tashabbusi, suhbatda ishtirok etishi, savol-javob jarayonidagi faolligi va o‘z ehtiyojlarini muloqot orqali ifodalash qobiliyatini ham baholash zarurligi aniqlandi. 22 nafar bola ishtirokidagi tadqiqotning dastlabki natijalarida 1 nafar bola muloqot motivatsiyasining past, 21 nafari esa o‘rta darajasini ko‘rsatgan. Tizimli logopedik mashg‘ulotlardan keyingi baholashda past darajadagi ko‘rsatkich qayd etilmadi; 10 nafar bola o‘rta, 12 nafar bola esa yuqori darajaga yetdi. Ushbu dinamika tadqiqot davomida qo‘llangan kommunikativ yo‘naltirilgan logopedik mashg‘ulotlar bolalarning muloqotdagi faolligini rivojlantirish uchun samarali sharoit yaratganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muloqot motivatsiyasini shakllantirishda kommunikativ o‘yinlar, savol-javob mashqlari, dialogik topshiriqlar, predmet va rasmlar asosida suhbat, rolli o‘yinlar, hikoya tuzish hamda

bolaning mustaqil kommunikativ tashabbusini rag‘batlantirish kabi usullardan tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv bolaning o‘zlashtirgan nutqiy ko‘nikmalarini real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashiga imkon beradi. Shu bilan birga, natijalarning 22 nafar bola bilan cheklanganligi va tadqiqotda nazorat guruhining mavjud emasligi sababli olingan ko‘rsatkichlarni barcha nutq buzilishiga ega bolalarga umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur. Kelgusida tadqiqot ishtirokchilari sonini kengaytirish, nazorat guruhidan foydalanish, standartlashtirilgan baholash mezonlarini qo‘llash va uzoq muddatli kuzatuv olib borish orqali mazkur yondashuvning samaradorligini yanada chuqurroq o‘rganish mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari logopedik korreksiya jarayonida nutqning shakliy tomonlari bilan bir qatorda bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji, kommunikativ tashabbusi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirdagi faolligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Muloqot motivatsiyasini maqsadli va tizimli ravishda shakllantirish nutq buzilishiga ega bolalarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning kundalik ijtimoiy faoliyatda faolroq ishtirok etishiga xizmat qiluvchi muhim logopedik yo‘nalish sifatida baholanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-595-son, 16.12.2019. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-641-son, 15.10.2020. – Toshkent, 2020.
4. Ayupova M.Yu. Logopediya: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 bet. – ISBN 978-9943-319-41-7.
5. Adams C. Social Communication Intervention for School-Age Children: Rationale and Description // Seminars in Speech and Language. – 2005. – Vol. 26, No. 3. – P. 181–188. – DOI: 10.1055/s-2005-917123.
6. Ninio A., Snow C.E. Pragmatic Development. – Boulder, CO: Westview Press, 1996. – 222 bet. – ISBN 0-8133-2470-X.
7. World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health: ICF. – Geneva: World Health Organization, 2001. – 299 p. – ISBN 92-4-154542-9.
8. Gerber S., Brice A., Capone N., Fujiki M., Timler G. Language Use in Social Interactions of School-Age Children with Language Impairments: An Evidence-Based Systematic Review of Treatment // Language, Speech, and Hearing Services in Schools. – 2012. – Vol. 43, No. 2. – P. 235–249. – DOI: 10.1044/0161-1461(2011/10-0047).
9. Adams C., Lockton E., Freed J., Gaile J., Earl G., McBean K., Nash M., Green J., Vail A., Law J. The Social Communication Intervention Project: A Randomized Controlled Trial of the Effectiveness of Speech and Language Therapy for School-Age Children Who Have Pragmatic and Social Communication Problems with or Without Autism Spectrum Disorder // International Journal of Language & Communication Disorders. – 2012. – Vol. 47, No. 3. – P. 233–244. – DOI: 10.1111/j.1460-6984.2011.00146.x.

10. Adams C., Lockton E., Gaile J., Earl G., Freed J. Implementation of a Manualized Communication Intervention for School-Aged Children with Pragmatic and Social Communication Needs in a Randomized Controlled Trial: The Social Communication Intervention Project // International Journal of Language & Communication Disorders. – 2012. – Vol. 47, No. 3. – P. 245–256. – DOI: 10.1111/j.1460-6984.2012.00147.x.
11. Brinton B., Fujiki M. Facilitating Social Communication in Children with Developmental Language Disorder: A Bibliotherapeutic Approach // Perspectives of the ASHA Special Interest Groups. – 2019. – Vol. 4, No. 3. – P. 532–537. – DOI: 10.1044/2019_PERS-SIG16-2019-0005.
12. Jensen de López K.M., Kraljević J.K., Struntze E.L.B. Efficacy, Model of Delivery, Intensity and Targets of Pragmatic Interventions for Children with Developmental Language Disorder: A Systematic Review // International Journal of Language & Communication Disorders. – 2022. – Vol. 57, No. 4. – P. 764–781. – DOI: 10.1111/1460-6984.12716.
13. American Speech-Language-Hearing Association. Spoken Language Disorders [Practice Portal]. – Rockville, MD: American Speech-Language-Hearing Association. – Elektron resurs.
14. American Speech-Language-Hearing Association. Social Communication Disorder [Practice Portal]. – Rockville, MD: American Speech-Language-Hearing Association. – Elektron resurs.
15. American Speech-Language-Hearing Association. Social Communication: Components and Clinical Considerations [Practice Portal]. – Rockville, MD: American Speech-Language-Hearing Association. – Elektron resurs.